Ma'lumotlar iqtisodiyoti va uning monopoliyaga qarshi tartibga solish tizimiga ta'siri bo'yicha Mayer-Schönberger va Ramge ma'lumotlarning yangi turdagi ishlab chiqarish omili sifatidagi rolini tahlil qilib, ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash qobiliyati raqobat ustunligini shakllantirishda muhim omil ekanini asosladilar. Stucke va Grunes ma'lumotlarga asoslangan monopoliyalarning an'anaviy monopoliyalardan farqli jihatlarini o'rganib, tartibga solishning yangicha yondashuvlarini joriy etish zarurligini ko'rsatdilar [4]. Crémer, de Montjoye va Schweitzer Yevropa Komissiyasi uchun tayyorlagan hisobotida raqamli bozorlar uchun ex-ante tartibga solish mexanizmlarini joriy etish zaruratini ilmiy jihatdan asoslab berdilar.

Xalqaro tajriba nuqtayi nazaridan Stigler komissiyasi AQShda raqamli platformalarni tartibga solish bo'yicha keng qamrovli tavsiyalar ishlab chiqdi; ularda ma'lumotlar portativligi, interoperabellik hamda strukturaviy islohotlar masalalari alohida ko'rib chiqilgan [5]. Furman hisoboti, Buyuk Britaniya hukumati topshirig'iga binoan tayyorlangan bo'lib, raqamli bozorlar uchun maxsus tartibga soluvchi organ – Digital Markets Unit – ni tashkil etish zarurligini ilgari surdi. Wu o'zining "The Curse of Bigness" asarida zamonaviy texnologik monopoliyalarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini chuqur tahlil qilib, antitrust siyosatini kuchaytirish zarurligini ta'kidladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasiga e'tibor qaratgan Singh va Kumar Hindiston misolida mahalliy raqamli iqtisodiyotni himoya qilish bilan xalqaro platformalarni tartibga solish o'rtasidagi muvozanatni topishdagi murakkabliklarni yoritdilar. Gao (2020-yil) esa Xitoyda texnologik gigantlarni tartibga solish amaliyoti va antimonopol siyosatning samaradorligini tahlil qildi [6]. UNCTAD rivojlanayotgan davlatlar uchun raqamli bozorlarni tartibga solish bo'yicha maxsus qo'llanma ishlab chiqib, milliy sharoitga mos strategiyalarni shakllantirishni tavsiya etdi.

O'zbekiston kontekstida Abdullayev va Karimov milliy raqobat qonunchiligining zamonaviy muammolarini o'rgandilar, biroq raqamli bozorlarning o'ziga xos jihatlariga yetarli e'tibor qaratilmadi. Tursunov elektron tijoratning rivojlanishi hamda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish masalalarini tahlil qilib, raqamli muhitda raqobatni yanada kuchaytirish zarurligini ta'kidladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi ekspertlari raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqib, tartibga solish mexanizmlariga bag'ishlangan alohida bo'limni shakllantirdilar [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kompleks ilmiy yondashuv qo'llanilgan bo'lib, u quyidagi asosiy metodlarni o'z ichiga oladi: adabiyotlar tahlili, qiyosiy huquqiy tahlil, institutsional tahlil hamda normativ-huquqiy hujjatlar tahlili. Ma'lumotlar manbasi sifatida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari, Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, Raqobatni qo'llab-quvvatlash va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish agentligining yillik hisobotlari, Iqtisodiyot va moliya vazirligi tahlillari, shuningdek xalqaro tashkilotlar – OECD, UNCTAD, Jahon banki – hisobotlari, ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, monografiyalar va ekspert tahlillari foydalanilgan.

Tadqiqot doirasi raqamli bozorlarning asosiy segmentlarini – elektron tijorat platformalari, mobil ilovalar do'konlari, raqamli to'lov tizimlari, onlayn xizmatlar agregatorlari, bulutli xizmatlar va ijtimoiy tarmoqlar – qamrab oladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda raqamli bozorlarni monopoliyaga qarshi tartibga solish tizimining hozirgi holatini tahlil etish bir qator asosiy muammolarni aniqlash imkonini berdi. Birinchidan, amaldagi qonunchilik asosan an'anaviy bozorlar uchun ishlab chiqilgan bo'lib, raqamli platformalarning o'ziga xos xususiyatlarini to'liq hisobga olmaydi. "Raqobatni qo'llab-quvvatlash va monopol faoliyatini cheklash to'g'risida"gi Qonun dominant mavqeni aniqlash mezonini sifatida bozor ulushining 35 foizdan ortishini belgilaydi. Biroq, raqamli bozorlar uchun ushbu mezonning qo'llanilishiga oid maxsus yondashuvlar hali to'liq aniqlanmagan. Tarmoq effektlari, ma'lumotlar to'planishi, ko'p tomonlama bozorlar modeli kabi raqamli iqtisodiyotga xos omillar qonunchilikda bevosita aks ettirilmagan.

Ikkinchidan, tartibga solish mexanizmlari hozircha asosan reaktiv xarakterga ega bo'lib, ko'p hollarda muammolar paydo bo'lgandan keyin choralar ko'riladi. Ex-ante nazorat mexanizmlarining – ya'ni muammolarni oldindan aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan nazorat tizimlarining – yetarlicha rivojlanmagani raqamli bozorlarning tez o'zgaruvchanligi hamda platformalarning tezda dominant mavqe egallash tendensiyasi sharoitida tartibga solishning samaradorligini cheklab qo'yimoqda.

Uchinchidan, institutsional salohiyatni oshirish zarurati mavjud. Raqobatni qo'llab-quvvatlash va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish agentligi asosan an'anaviy bozorlarni nazorat qilish bo'yicha katta tajribaga ega bo'lsa-da, raqamli platformalarni chuqur tahlil etish uchun zarur texnologik kompetensiyalar va maxsus bilimlar bazasini kengaytirish lozim.

To'rtinchidan, ma'lumotlar portativligi, interoperabellik, ochiq API talablari kabi zamonaviy tartibga solish vositalari milliy qonunchilikda hali mustahkam o'rin olmagan. Ushbu elementlar raqamli raqobatni oshirish va foydalanuvchilar huquqlarini kengaytirish nuqtayi nazaridan dolzarb ahamiyatga ega.

Xalqaro tajribani qiyosiy tahlil qilish natijalari bir qator ilg'or modellar va yondashuvlarni aniqlash imkonini berdi. Yevropa Ittifoqida 2022-yilda kuchga kirgan "Raqamli Bozorlar to'g'risidagi qonun" (Digital Markets Act) "darvozabon" platformalar uchun maxsus tartibga solish rejimini joriy etdi. Unga ko'ra, yillik daromadi 7,5 milliard yevrodan ortiq, yoki bozor kapitalizatsiyasi 75 milliard yevrodan yuqori bo'lgan hamda kamida uchta Yevropa Ittifoqi davlatida 45 milliondan ortiq faol foydalanuvchiga ega platformalar "darvozabon" sifatida tan olinadi. Bunday platformalarga bir qator majburiyatlar yuklatilgan: o'z xizmatlarini boshqa xizmatlarga nisbatan ustun qo'ymaslik, uchinchi tomon dasturchilariga ochiq API taqdim etish, foydalanuvchilarga ma'lumotlarini portativ shaklda ko'chirish imkoniyatini berish hamda reklama jarayonlarida foydalaniladigan ma'lumotlar to'g'risida shaffoflikni ta'minlash [8].

AQShda esa raqamli bozorlarni tartibga solish an'anaviy antitrast huquqi doirasida, ammo zamonaviy raqamli realliklarga moslashtirilgan shaklda olib borilmoqda. 2020–2023-yillar davomida Google, Facebook (Meta), Amazon va Apple kompaniyalariga nisbatan bir qator antitrast ishlar qo'zg'atildi. Federal Savdo Komissiyasi (FTC) hamda Adliya vazirligi raqamli platformalarning vertikal integratsiyasi, raqobatchilarni sotib olish orqali bozorni monopollashtirishga urinishlari va ma'lumotlar maxfiyligini buzish holatlariga nisbatan qat'iy pozitsiyani egalladi.

Hindistonda 2021-yilda Raqobat komissiyasi raqamli bozorlar uchun maxsus ko'rsatmalarni qabul qildi. Ushbu ko'rsatmalarda platformalarning dominant mavqeni suiiste'mol qilishi, ma'lumotlardan g'ayriqonuniy foydalanish va algoritmik kelishuvlar kabi masalalar alohida tartibda ko'rib chiqildi. Janubiy Koreya 2021-yilda esa ilovalar do'konlari uchun to'lov tizimlarini tanlash erkinligini kafolatlovchi qonunni qabul qildi, bu esa Apple va Google monopol mavqeini cheklashga qaratilgan muhim qadam bo'ldi [9].

O'zbekiston uchun xalqaro tajriba asosida quyidagi takomillashtirish yo'nalishlari ishlab chiqildi.

Birinchi yo'nalish – ***"Raqamli platformalar va raqamli bozorlarni tartibga solish to'g'risida"***gi maxsus qonunni qabul qilishdir. Mazkur qonun quyidagi asosiy qoidalarni o'z ichiga olishi zarur: raqamli platforma, darvozabon platforma, tarmoq effekti, ma'lumotlar portativligi kabi asosiy tushunchalarning aniq va yagona ta'riflarini belgilash; raqamli bozorlar uchun dominant mavqeni aniqlashning maxsus mezonlarini ishlab chiqish (faqat bozor ulushi emas, balki tarmoq effektlarining kuchi, foydalanuvchilar ma'lumotlarining hajmi va sifati, ko'p tomonlama bozor dinamikasi hamda bozorga kirish to'siqlari darajasi); darvozabon platformalar uchun ex-ante majburiyatlar tizimini joriy etish; ma'lumotlar portativligi va interoperabellik bo'yicha minimal texnik standartlarni belgilash; algoritmik shaffoflikni ta'minlash va tushuntirib beriladigan algoritmardan foydalanish talablarini mustahkamlash.

Ikkinchi yo'nalish – Raqobatni qo'llab-quvvatlash va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi tarkibida Raqamli bozorlar departamentini tashkil etishdir. Ushbu departament quyidagi vazifalarni bajarishi lozim: raqamli platformalarni doimiy monitoring qilish va ularning faoliyatini tahlil etish; darvozabon platformalarni aniqlash va rasmiy ro'yxatga olish; platformalarning qonuniy majburiyatlarni bajarishini nazorat qilish; raqamli bozorlar bo'yicha ekspertiza va ilmiy tahlillar o'tkazish; xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va ma'lumot almashish mexanizmlarini yo'lga qo'yish. Departament tarkibida ma'lumotlar tahlili, dasturiy ta'minot injiniringi va raqamli iqtisodiyot yo'nalishlarida malakali mutaxassislar faoliyat yuritishi zarur.



Uchinchi yo'nalish – ma'lumotlar portativligi va interoperabellik standartlarini joriy etishdir. Foydalanuvchilar o'z ma'lumotlarini bir platformadan boshqasiga oson va xavfsiz tarzda o'tkaza olish imkoniyatiga ega bo'lishlari, shuningdek platformalar o'rtasida texnik moslikni ta'minlash lozim. Bu jarayon uchun davlat miqyosida texnik standartlar ishlab chiqilishi hamda ularning majburiy qo'llanilishi kafolatlanishi zarur.

To'rtinchi yo'nalish – bozorga kirish to'siqlarini kamaytirish choralarini amalga oshirishdir. Startaplar va kichik raqamli biznes subyektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, darvozabon platformalarning o'z ekotizimlari doirasida uchinchi tomon ishlab chiquvchilarni cheklashiga yo'l qo'ymaslik, texnik hujjatlar va API standartlarini ochiq e'lon qilish orqali raqobatbardosh muhitni kengaytirish zarur.

Beshinchi yo'nalish – iste'molchilar huquqlarini kuchaytirish mexanizmlarini takomillashtirishdir. Platformalarning xizmat shartlarida to'liq shaffoflikni ta'minlash, foydalanuvchilarga ularning ma'lumotlari qanday ishlatilishini aniq va tushunarli tarzda tushuntirish, algoritmik qarorlarga e'tiroz bildirish imkoniyatini yaratish, shuningdek, ma'lumotlar maxfiylikni himoya qilish standartlarini kuchaytirish muhimdir.

Oltinchi yo'nalish – xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdir. Mintaqaviy va global miqyosda ilg'or tajribalarni o'rganish, transchegara antimonopol tergovlar o'tkazish va qonunchilikni muvofiqlashtirish mexanizmlarini yo'lga qo'yish iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Takomillashtirish yo'nalishlarini amalga oshirish bosqichma-bosqich tarzda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Qisqa, o'rta va uzoq muddatli choralarni amalga oshirish O'zbekiston raqamli bozorlarini samarali tartibga solish tizimini shakllantirishda izchil strategiyani ta'minlaydi. 2025–2026-yillar davomida amaldagi qonunchilikka zarur qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish, Raqamli bozorlar departamentini tashkil etish, xalqaro hamkorlik shartnomalarini imzolash, shuningdek ekspert guruhlarini shakllantirish va malaka oshirish bo'yicha treninglar o'tkazish rejalashtiriladi. 2027–2028-yillar oralig'ida "Raqamli platformalar va raqamli bozorlarni tartibga solish to'g'risida"gi yangi qonunni qabul qilish, ma'lumotlar portativligi standartlarini ishlab chiqish va joriy etish, darvozabon platformalarni ro'yxatga olish jarayonini boshlash hamda monitoring tizimini to'liq ishga tushirish ko'zda tutiladi. 2029–2030-yillarda esa tartibga solish tizimini baholash va takomillashtirish, xalqaro integratsiyani chuqurlashtirish, yangi texnologik tendensiyalarga moslashish, mustaqil ilmiy tadqiqotlar o'tkazish hamda milliy siyosat tavsiyalarini ishlab chiqish orqali tizimning barqaror rivojlanishini ta'minlash nazarda tutiladi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston raqamli bozorlarining asosiy ko'rsatkichlari va dominant ishtirokchilar (2024)¹

Segment	Bozor hajmi (mlrd so'm)	Yillik o'sish (%)	Top-3 ishtirokchilar bozor ulushi (%)	Dominant platforma	HHI indeksi
Elektron tijorat	18,500	42	71 (Uzum - 35%, Mediapark - 21%, Olcha - 15%)	Uzum Market	2,150
Taksi xizmatlari	4,200	38	89 (Yandex - 52%, Uzum - 37%)	Yandex Taxi	4,073
Oziq-ovqat yetkazib berish	2,800	55	78 (Yandex Eats - 45%, Uzum - 33%)	Yandex Eats	3,114
Mobil to'lovlar	127,000	28	65 (Click - 28%, Payme - 22%, Uzum - 15%)	Click	1,517
Ilovalar do'koni	-	-	98 (Google Play - 78%, App Store - 20%)	Google Play	6,484

1-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston raqamli bozorlarining aksariyat segmentlarida konsentratsiya darajasi yuqori. Ayniqsa, taksi xizmatlari va ilovalar do'koni segmentlarida HHI indeksi 4 000 dan oshgan bo'lib, bu bozorning yuqori darajada markazlashganligini anglatadi. Elektron tijorat va oziq-ovqat yetkazib berish bozorlarida ham konsentratsiya nisbatan yuqori, biroq ushbu segmentlarda raqobat harakatchanligi va o'zgaruvchanlik darajasi yuqorilgicha qolmoqda. Mobil to'lovlar bozorida esa konsentratsiya darajasi nisbatan past bo'lsa-da, rivojlanish jarayoni asta-sekin konsolidatsiya yo'nalishida kechmoqda.

Shuningdek, ayrim bozor segmentlarida bitta yirik korporativ guruh – "Uzum" faol pozitsiyalarni egallab, vertikal va gorizontall integratsiya orqali o'z faoliyatini samarali kengaytirmoqda. Bu holat, o'z navbatida, bozorning tashkiliy va texnologik barqarorligini mustahkamlash bilan birga, raqobatni sog'lom rivojlantirish uchun yangi yondashuvlar zarurligini ko'rsatadi (2-jadval).

1 Eslatma: HHI (Herfindahl-Hirschman indeksi) - bozor konsentratsiyasini o'lchash ko'rsatkichi. 1,500-2,500 - o'rtacha konsentratsiya, 2,500+ - yuqori konsentratsiya. Ma'lumotlar: o'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi, Raqobat agentligi, ochiq manbalar.

2-jadval. Xalqaro va milliy tartibga solish mexanizmlarining qiyosiy tahlili²

Mezon	Yevropa Ittifoqi (DMA)	AQSh	Hindiston	O'zbekiston (hozirgi holat)	O'zbekiston (taklif)
Maxsus qonunchilik	Ha (DMA, 2022)	Yo'q (antitrust qonunlar)	Qisman (ko'rsatmalar)	Yo'q	Ha (yangi qonun loyihasi)
Ex-ante nazorat	Ha (darvozabonlar uchun)	Yo'q	Qisman	Yo'q	Ha
Dominant mavqe mezoni	Ko'p omilli (daromad, foydalanuvchilar, bozor pozitsiyasi)	Bozor kuchi va raqobatga ta'sir	Bozor ulushi va ta'sir	Asosan bozor ulushi (35%+)	Ko'p omilli yondashuv
Ma'lumotlar portativligi	Majburiy	Ixtiyoriy	Tavsiya etiladi	Tartibga solinmagan	Majburiy standartlar
Interoperabellik	Majburiy	Ixtiyoriy	Tavsiya etiladi	Tartibga solinmagan	Majburiy minimal standartlar
Jazolar maksimal hajmi	Global daromadning 10%	Chetlatish, strukturaviy tuzatish	Daromadning 10%	Daromadning 5%	Daromadning 10%
Maxsus tartibga soluvchi organ	Yevropa Komissiyasi	FTC, DOJ	Raqobat komissiyasi	Raqobat agentligi	Raqamli bozorlar departamenti
Monitoring tizimi	Doimiy, avtomatlashtirilgan	Shikoyatlar asosida	Doimiy	Qisman	To'liq avtomatlashtirilgan
Algoritmik shaffoflik	Majburiy	Qisman	Tavsiya etiladi	Tartibga solinmagan	Majburiy (darvozabonlar uchun)
Xalqaro hamkorlik	Yuqori (EI doirasida)	Ikki tomonlama	Rivojlanmoqda	Cheklangan	Faol rivojlantirish

2-jadvalning qiyosiy tahlili bir qator muhim xulosalar chiqarish imkonini beradi. Birinchidan, Yevropa Ittifoqi raqamli bozorlarni tartibga solishda eng ilg'or va kompleks tizimni yaratgan. Mazkur tizim ex-ante nazorat, ko'p omilli baholash mexanizmlari hamda qat'iy majburiyatlar asosida shakllantirilgan. Digital Markets Act (DMA) doirasida "darvozabon" maqomiga ega platformalar oldindan belgilangan qoidalarga qat'iy rioya etishlari shart bo'lib, bu muammolarning oldini olish imkonini beradi.

Ikkinchidan, AQShda raqamli bozorlarni tartibga solish an'anaviy antitrust qonunchiligi doirasida olib borilmoqda, biroq so'nggi yillarda raqamli gigantlarga nisbatan tartibga solish siyosati yanada faol va qat'iy tus olmoqda. Federal Savdo Komissiyasi (FTC) va Adliya vazirligi tomonidan Google, Meta, Amazon va Apple kompaniyalariga qarshi 2020–2023-yillar oralig'ida qo'zg'atilgan ishlar bu tendensiyani yaqqol tasdiqlaydi.

Uchinchidan, Hindiston rivojlanayotgan mamlakat sifatida Yevropa va AQSh tajribalarini o'zining iqtisodiy va huquqiy sharoitlariga moslashtirib, gibrid tartibga solish modelini shakllantirmoqda. Bu tajriba O'zbekiston uchun ayniqsa amaliy ahamiyat kasb etadi, chunki u milliy sharoitda xalqaro eng yaxshi yondashuvlarni moslashtirish imkonini beradi.

O'zbekistonning hozirgi tartibga solish tizimi hozircha asosan reaktiv xarakterga ega bo'lib, raqamli bozorlarning o'ziga xos jihatlarini to'liq qamrab olmaydi. Dominant mavqeni aniqlashda faqat bozor ulushi mezonidan foydalanish raqamli platformalarning murakkab iqtisodiy va texnologik ta'sir mexanizmlarini yetarlicha aks ettirmaydi. Shu sababli ma'lumotlar portativligi, interoperabellik va algoritmik shaffoflik kabi zamonaviy tartibga solish vositalarini milliy qonunchilikda joriy etish zarur.

Taklif etilayotgan yangi tizim xalqaro ilg'or tajribalarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirishni nazarda tutadi. Ayniqsa, ex-ante nazorat mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki raqamli bozorlarning tez o'zgaruvchanligi va tarmoq effektlarining kuchli ta'siri sharoitida monopol holatlarning shakllanishini kutib turish iqtisodiy jihatdan kechikish va resurs yo'qotish xavfini oshiradi.

Ma'lumotlar portativligi va interoperabellik standartlarini majburiy tarzda joriy etish bozorga kirish to'siqlarini sezilarli darajada kamaytiradi, yangi ishtirokchilar uchun raqobat imkoniyatlarini kengaytiradi hamda iste'molchilar uchun platformalar o'rtasida erkin harakatlanish huquqini ta'minlaydi. Shu bilan birga, jazolar miqdorini milliy daromadning 5 foizidan 10 foizigacha oshirish qonunbuzarliklarning oldini olishda samarali profilaktik mexanizm sifatida xizmat qiladi va tizimni xalqaro standartlarga yaqinlashtiradi.

2 Eslatma: Ma'lumotlar tegishli qonunchilik hujjatlari, tartibga soluvchi organlar hisobotlari va muallif tahliliga asoslangan.



Mazkur muammolar va risklarni hisobga olgan holda, takomillashtirish strategiyasi bosqichma-bosqich va ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi lozim. Dastlabki bosqichda qonunchilik bazasini yaratish, institutsional salohiyatni oshirish va amaliy tajriba to'plashga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Keyingi bosqichlarda tartibga solish mexanizmlarini yanada kengaytirish va chuqurlashtirish, doimiy monitoring va baholash tizimlarini joriy etish orqali amalga oshirilgan islohotlarning samaradorligini muntazam o'lchash zarur.

Bundan tashqari, xalqaro tajriba almashish va texnik yordam dasturlarini rivojlantirish institutsional salohiyatni tezroq mustahkamlashga xizmat qiladi. Biznes hamjamiyati bilan ochiq muloqot va hamkorlikni yo'lga qo'yish yangi qoidalarning amaliy qo'llanishini yengillashtiradi hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni oldindan bartaraf etish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda raqamli bozorlarni monopoliyaga qarshi tartibga solish tizimi hozirgi bosqichda rivojlanish jarayonida bo'lib, zamonaviy raqamli iqtisodiyotning talablariga mos ravishda takomillashtirishmoqda. Mavjud qonunchilik asosan an'anaviy bozorlar uchun ishlab chiqilgan bo'lsa-da, raqamli platformalarning o'ziga xos jihatlari — tarmoq effektlari, ma'lumotlar to'planishi, ko'p tomonlama bozorlar dinamikasi va miqyos iqtisodiyoti — ni yanada to'liq hisobga olish zarur. Shu sababli ayrim yirik platformalar o'z segmentlarida yetakchi mavqeni egallagan bo'lib, bu holat raqobat muhitini takomillashtirish, yangi ishtirokchilar uchun bozorga kirish imkoniyatlarini kengaytirish va iste'molchilar huquqlarini samarali himoya qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar bir nechta asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi. Birinchidan, "Raqamli platformalar va raqamli bozorlarni tartibga solish to'g'risida"gi maxsus qonunni qabul qilish zarur. Ushbu qonunda asosiy tushunchalar aniq ta'riflanishi, dominant mavqeni aniqlashning ko'p omilli mezonlari belgilanib, darvozabon platformalar uchun ex-ante majburiyatlar tizimi joriy etilishi hamda ma'lumotlar portativligi va interoperabellik standartlari mustahkamlanishi lozim.

Ikkinchidan, Raqobatni qo'llab-quvvatlash va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish agentligi tarkibida Raqamli bozorlar departamentini tashkil etish tavsiya etiladi. Ushbu departament tarkibida raqamli texnologiyalar va platformalar iqtisodiyoti sohasida yuqori malakali mutaxassislar faoliyat yuritishi ta'minlanadi.

Uchinchidan, ma'lumotlar portativligi va interoperabellik bo'yicha majburiy davlat standartlarini ishlab chiqish va joriy etish lozim. Bu chora bozorga kirish to'siqlarini kamaytiradi, raqobatni faollashtiradi hamda foydalanuvchilar uchun yanada ochiq va shaffof raqamli muhit yaratadi.

To'rtinchidan, monitoring va ma'lumotlar tahlili uchun zamonaviy texnologik tizimlarni joriy etish dolzarb ahamiyatga ega. Bunday tizim doimiy nazoratni yo'lga qo'yadi, muammolarni erta aniqlash imkonini beradi va tartibga solish mexanizmlarining samaradorligini oshiradi.

Beshinchidan, jazolar tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish zarur. Maxsus holatlarda jazolar hajmini korxona daromadining 10 foizigacha oshirish qonunbuzarliklarning oldini olishda yanada samarali preventiv ta'sir ko'rsatadi.

Oltinginidan, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, ilg'or tajribalarni o'rganish, transchegara antimonopol tergovlarni tashkil etish va hamkorlik mexanizmlarini yaratish global raqamli bozorlar sharoitida samarali tartibga solishning muhim shartidir.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda raqamli bozorlarni monopoliyaga qarshi tartibga solish tizimini takomillashtirish — strategik ahamiyatga ega vazifa bo'lib, u raqamli iqtisodiyotning barqaror, adolatli va innovatsion rivojlanishini ta'minlash uchun muhim omil hisoblanadi. Xalqaro ilg'or tajribalarga asoslangan, milliy sharoitga moslashtirilgan hamda bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan islohotlar tizimi O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotini yanada raqobatbardosh va barqaror rivojlanish bosqichiga olib chiqishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). Raqamli to'lovlar va elektron tijorat rivojlanishi to'g'risida hisobot. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
2. Katz, M. L., & Shapiro, C. (1985). Network externalities, competition, and compatibility. *American Economic Review*, 75(3), 424–440.
3. Evans, D. S., & Schmalensee, R. (2016). *Matchmakers: The new economics of multisided platforms*. Boston: Harvard Business Review Press.
4. Stucke, M. E., & Grunes, A. P. (2016). *Big data and competition policy*. Oxford: Oxford University Press.
5. Stigler Committee on Digital Platforms. (2019). *Final report*. Chicago: Chicago Booth School of Business.
6. Gao, H. (2020). Regulating big tech platforms in China: A new regulatory toolbox. *Computer Law & Security Review*, 39, 105468.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi. (2024). *Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish: muammolar va yechimlar*. Toshkent: PDBA.



8. European Commission. (2022). Digital Markets Act: Ensuring fair and open digital markets. Brussels: European Commission. <https://ec.europa.eu/digital-markets-act>
9. Kim, J. Y., & Lee, S. H. (2023). South Korea's app store law and its implications for platform regulation. Asian Journal of Law and Economics, 14(1), 45–67.
10. UNCTAD. (2021). Digital economy report 2021: Cross-border data flows and development. Geneva: United Nations Conference on Trade and Development.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100